

**O‘QUVCHILAR O‘RTASIDA AGRESSIV XULQ-ATVOR
NAMOYON BO‘LISHIGA SABAB BO‘LUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR
VA ULARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY USULLARI**

Ismoilova Nargis Faxriddinovna

*Toshkent viloyati Quyichirchiq tumani MMTB tasarrufidagi 15-umumiy
o‘rta ta’lim maktabining psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilar o‘rtasida agressiv xulq-atvorning yuzaga kelish sabablari, uning psixologik omillari hamda bartaraf etishning zamonaviy usullari yoritilgan. Shuningdek, oila, maktab va psixologning bu jarayondagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: agressiya, xulq-atvor, o‘quvchi, psixologiya, stress, muhit, tarbiya, profilaktika, muloqot, rivojlanish

KIRISH

Bugungi kunda o‘quvchilar o‘rtasida agressiv xulq-atvor muammosi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Agressiya — bu insonning salbiy hissiyotlarini boshqalarga nisbatan tajovuzkor xatti-harakatlar orqali ifodalashidir. Bu holat o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarga va umumiy ta’lim muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Agressiv xulq-atvorning paydo bo‘lishiga bir qator psixologik omillar sabab bo‘ladi. Eng avvalo, oiladagi muhit muhim rol o‘ynaydi. Agar bola doimiy janjal, zo‘ravonlik yoki e’tiborsizlik muhitida ulg‘aysa, u agressiv bo‘lib shakllanishi mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarning ichki ruhiy holati ham muhimdir. Stress, tushunilmaslik, o‘ziga ishonchsizlik yoki e’tibor yetishmasligi agressiyani keltirib chiqaradi. Ba’zan bola o‘z muammolarini boshqacha yo‘l bilan ifoda eta olmagan uchun agressiv bo‘lib qoladi.

Tengdoshlar ta’siri ham agressiyaning sabablaridan biridir. Salbiy muhitga tushgan o‘quvchi boshqalarga taqlid qilib, tajovuzkor xatti-harakatlarni

o'zlashtirishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar va zo'ravonlikka boy kontent ham bolalar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ularning agressivlik darajasini oshirishi mumkin.

Agressiv xulq-atvorni bartaraf etishda psixologik yondashuv muhimdir. Eng avvalo, o'quvchining muammosini tushunish va uning sababini aniqlash zarur. Maktab psixologi o'quvchilar bilan individual va guruhli ishlash orqali ularning hissiyotlarini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Psixologik treninglar orqali o'quvchilarga stressni boshqarish, o'zini nazorat qilish va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish o'rgatiladi.

O'qituvchilar o'quvchilarga mehr bilan yondashishi, ularni kamsitmasligi va adolatli munosabatda bo'lishi kerak. Bu o'quvchilarda ishonchni mustahkamlaydi va agressiyani kamaytiradi. Ota-onalar esa farzandiga e'tiborli bo'lishi, uning muammolarini tinglashi va uni qo'llab-quvvatlashi zarur. Uyda sog'lom psixologik muhit yaratish agressiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport va ijodiy faoliyatga jalb qilish ham agressivlikni kamaytiradi. Shaxsga doir individual taraqqiyot samarasini hamda shaxslararo munosabatlarni belgilovchi xulq-atvor va xatti-harakatlarning eng muhim xususiyatlaridan biri agressivlikdir. Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi. Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bundan tashqari, agressiya ulkan tortishish kuchi va yuqumlilik xususiyatiga ega – ko'pchilik o'zining agressiv ekanini inkor etadi, ammo o'zining kundalik hayotida esa, uni keng namoyish qiladi. Aynan agressiv xulq-atvor shaxslararo nizolarning vujudga kelishiga va ularni hal etishning asossiz yo'llari paydo bo'lishiga olib keladi.

Agressiv xulq - shaxsning ma'naviy buzuqlikka asoslangan, boshqarishning ichki dunyosiga ochiqdan-ochiq salbiy ta'sir o'tkazib, tajovuz qilib, uni izdan chiqarishga qaratilgan g'ayriinsoniy xususiyat. Agressiv xulqning shakllanishi,

kuchayishi va namoyon bo'lishi ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda yuz beradi. Shaxsning o'ziga qaratilgan tajovuzkorlik "autoagressiya" (bunday holat shaxsdagi patologik o'zgarishlarning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi) deb ataladi. O'z joniga qasd qilish, o'ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko'rinishlaridir. Jaholatga botgan, johillik va zo'ravonlikni maqsadga erishishning asosiy va ustuvor vositasi deb biladigan shaxslarda Agressiv xulq kuchli bo'ladi.

Agressiv xulq-atvor sabablari — bu o'quvchi yoki shaxsda tajovuzkorlik, jahldorlik va salbiy xatti-harakatlarning yuzaga kelishiga olib keladigan omillardir.

Oddiy qilib aytganda, bu — nima uchun bola yoki o'quvchi agressiv bo'lib qolishini tushuntiruvchi sabablardir.

Agressiv xulq-atvorning asosiy sabablari quyidagilar:

1. Oilaviy muhit

- oilada janjal va zo'ravonlik bo'lishi;
- ota-onaning befarqligi yoki haddan tashqari qattiqqo'lligi;
- mehr va e'tibor yetishmasligi.

2. Ruhiy (psixologik) omillar

- stress va ichki bosim;
- o'ziga ishonchsizlik;
- tushunilmaslik hissi;
- hissiyotlarni boshqara olmaslik.

3. Tengdoshlar ta'siri

- yomon do'stlar ta'siri;
- bulling muhitida bo'lish;
- boshqalarga taqlid qilish.

4. Ta'lim muhitidagi muammolar

- o'qituvchi bilan kelishmovchilik;
- darslarga qiziqmaslik;
- o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar.

5. Axborot va texnologiyalar ta'siri

- zo'ravonlikka boy filmlar va o'yinlar;

- internetdagi salbiy kontent;
- nazoratsiz gadjetlardan foydalanish.

6. Biologik va individual xususiyatlar

- temperament (tez jahllanish);
- asab tizimining o‘ziga xosligi;
- yosh davriga xos o‘zgarishlar (ayniqsa o‘smirlikda).

Agressiv xulq-atvor birgina sabab bilan emas, balki bir nechta omillarning ta’siri natijasida yuzaga keladi. Uni kamaytirish uchun oila, maktab va psixolog birgalikda ishlashi muhimdir. A.Bandura va R.Uolter o‘smirlar va ularning oilaviy sharoitlari o‘rtasidagi ijtimoylashish aloqasini o‘rganib chiqib, bola xulq-atvorini belgilab beruvchi uchta asosiy xususiyatni ajratganlar:

- qaramlik (jinsiy-shaxsiyat) munosabatlarini o‘rnatishga uning tayyorgarligi;
- vijdonining rivojlanish darajasi;
- agressiyaga nisbatan motivatsiyaning kuchi.

O‘smirlardagi agressiya nafaqat pedagoglar va psixologlar, balki butun bir jamiyat uchun birmuncha o‘tkir muammolardan biri hisoblanadi. Inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, hayotning yuqori ritmi, shaharlarning zichligi, ortib borayotgan axborot vositalari insonlar psixik holatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. O‘smirlar jinoyatchiligining o’sib borayotgan oqimi va axloqning tajovuzkor shakliga moyil bolalar sonining ortishi bunday xavfli ko‘rinishlarni uyg‘otuvchi psixologik sharoitni o‘rganishni birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan vazifa sifatida ilgari surdi. Tajovuzning u yoki bu shakllari ko‘pchilik o‘smirlar uchun xarakterlidir, biroq ma'lumki, muayyan kategoriyadagi bolalarda tajovuzkorlik axloqning turg'un shakli sifatida nafaqat saqlanadi, balki shaxsning turg'un sifatiga transformatsiyalangan rivojlanadi ham, natijada bolaning mahsuldor potentsiali pasayadi, to'laqonli kommunikasiya imkoniyati torayadi, uning shaxsiy rivojlanishi deformatsiyalanadi.

Agressiv o‘smir nafaqat atrofdagilarga, balki o'ziga ham bir talay muammolar keltiradi. Tajovuzkorlik shaxsning turg'un shaxsiy chizig'iga

aylanmasligi uchun bola axloqining xususiyatlari va hissiy holatini tushunmoq, o'z vaqtida psixokorreksion ishni tashkil eta olmoq darkor. O'smirlarning tajovuzkor axloqini o'z vaqtida aniqlash bola shaxsining rivojlanishidagi noxush holatning oldini olish uchun juda zarur hisoblanadi. O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil qiladi. O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

O'smirlik davrida o'smirning "men"i qaytadan shakllanadi. Uning atrofdagilarga, ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyati yo'nalishi keskin o'zgaradi. Ularda ilgari qiziqishlar so'nadi va yangi qiziqishlar paydo bo'ladi. Bunda ish qobiliyatining, o'zlashtirishning pasayishi, o'smirlarning qo'polligi va yuqori qo'zg'aluvchanligi, o'zidan qoniqmasligi, agressiya, xavotirlanish kayfiyat beqarorligi, depressiv kechinmalar, tez ranjish, arzimas narsaga ham kuchli reaksiya bildirish, o'zini past baholash kabi salbiy xulq-atvor ko'rinishlari namoyon bo'ladi. O'smirlik davrida bolalar hissiy jihatdan beqaror bo'lib qoladilar. Bu paytda o'smirning oilasidagilar ham u bilan muloqotni kuchaytirishi zarur. Psixologlar buni gormonal o'sish, tanani qayta qurish, balog'atga yetish kabi biologik omillar bilan bog'laydi. Ammo ba'zi hollarda hissiy o'zgarishlar radikal shakllarga ega bo'lib, agressiyaga aylanishi mumkin. Agar o'smir o'z agressiyasi bilan yolg'iz qolsa, bu uni buzg'unchi jamoalarga olib kirishi va natijada huquqbuzarliklarga olib kelishi mumkin.

Xo'sh bunday holatda, agressiv xulq-atvorga ega bo'lgan o'quvchilarga qanday psixologik yordam ko'rsatish mumkin. Psixologik yordam turlari orasida eng ommaviy qo'llaniladigani bu-maslahat berishdir. Maslahat berish ishlari-amaliyotchi psixologning asosiy faoliyat turlaridan biridir. Maslahat berish ishlari o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar uchun olib boriladi. Maslahat berish ishlari individual va guruh bo'lishi mumkin. Agressiv xulq-atvorli o'smirlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar. a. O'ziga ijobiy baho berishga o'tish, xavfsizlikni tekshirish b. o'zining va o'zgalarning emotsiya va tuyg'ularini anglashga o'rgatish, diskruktiv emotsiyalarni nazorat qilishni yaxshilash;

b. o`ziga va atrofdagilarga ziyon yetmaydigan g`azabni tuzatish usullarga o`rgatish, muammoli vaziyatda bola xulq-atvorida konstruktiv reaksiyalarga o`rgatish va disstruktiv vositalarni bartaraf etish;

d. ota-onalar pedagoglar bilan konsultatsiyalar (bolalardagi agressiyani bo`rttiruvchi jixozni belgilashga) o`rnatish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o`quvchilar o`rtasida agressiv xulq-atvorni oldini olish va bartaraf etish kompleks yondashuvni talab qiladi. Oila, maktab va psixologning hamkorligi orqali sog`lom va ijobiy muhitni shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi. Ma`ruzalar matni. Jizzax PI. 2013.- 141 b
2. Ataeva N. va boshqalar. Umumiy Pedagogika. Darslik//-T.: Fan va texnologiya nashiriyoti, 2013 y.
3. Bolalarga o`smirlarga maslaxat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G.V.Burmenskoy E. I.Zaxarova O.A.Karabova va boshqalar., ,Akademiya, 2012.112s
4. Bolalarga o`smirlarga maslahat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G. V. Burmenskoy E. I. Zaxarova O. A Karabonova va boshqalar-M. , , Akademiya, , 2012. -112s.
5. Dolgova V. I. O`smirlarning shaxslararo munosabatlarini psixologik-pedagogik tuzatish;ilmiy va uslubiy tavsiyalar-Chelyabinsk;ATOCSO, 2010-112S
11
6. Ziyo.net